

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 131 (1192), 2024-yil 3-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHHT SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “SHHT plus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun 3-4-iyul kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo‘ladi.

Sammit kun tartibidan SHHT doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va tashkilot faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari o‘rin olgan. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlikning muhim jihatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Yig‘ilish yakunida Ostona deklaratsiyasi hamda iqtisodiyot, xavfsizlik, ekologiya, energetika, turizm va boshqa ko‘plab

yo‘nalishlarda sheriklikni kengaytirish bo‘yicha hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Tashrif doirasida O‘zbekiston yetakchisi xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham o‘tkazadi.

O‘ZA

Xalqaro sammit

O‘ZBEKISTON – SHHT: XALQLAR VA DAVLATLAR TINCHLIGI HAMDA FAROVONLIGI YO‘LIDAGI TASHABBUSLAR

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-4-iyul kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo‘ladi va Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

SHHT 2001-yilda tuzilgan mintaqaviy xalqaro tashkilotdir. O‘zbekiston Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya va Tojikiston bilan birga tashkilotning asoschilaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda SHHTga to‘qqiz davlat a‘zo.

Bundan tashqari, uch davlat kuzatuvchi sifatida qo‘shildi, 14 davlat tashkilot bilan

muloqot bo‘yicha hamkor maqomiga ega. Bu SHHTning o‘tgan yillar davomida nufuzi va xalqaro siyosatdagi roli hozirgi murakkab geosiyosiy sharoitda mustahkamlab borayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda SHHTga a‘zo davlatlarning umumiy maydoni 34 million kvadrat kilometrni, ya‘ni Yevrosiyo

mintaqasining 60 foizini tashkil etadi. A‘zo davlatlar aholisi 3 milliardga yaqin yoki yer yuzi aholisining qariyb 42 foiziga teng. Shuningdek, SHHT mamlakatlari iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining 24 foizdan ortig‘ini qoplaydi.

Davomi 3-beta

Xalq diplomatiyasi



SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI jahon siyosatining muhim subyektiga aylanmoqda

O‘tmishda davlatlar o‘rtasidagi faoliyatning muayyan omillariga bog‘liq holda turli tuzilmalar tashkil etilgan, hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Asrlar davomida ulkan mintaqa xalqlarini savdotsotiq, madaniy-ma‘naviy qadriyatlar bilan birlashtirib turgan, davlatlar va etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarga asos solgan Buyuk ipak yo‘li bunga yorqin misoldir.

Bugun dunyoda ro‘y berayotgan voqealar xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish va muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlash uchun barcha sharoit yaratib berilgan kun tartibiga qo‘ymoqda. Mamlakatlarda tashqi siyosatidagi raqamli o‘zgarishlar transformatsiyasi davrida har bir tomonning manfaatiga javob beradigan xalqaro

hamkorlikni ko‘p tomonlama institutlarsiz yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Ushbu institutlar mintaqaviy va global miqyosda davlatlararo hamkorlikning eng muhim vositasi bo‘lib xizmat qilishda davom etmoqda. Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar davlatlar o‘rtasidagi turli kelishmovchiliklarni bartaraf etish,

o‘zaro anglashuvni mustahkamlash, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, savdotsotiq ko‘lamini kengaytirish hamda madaniy-gumanitar almashuvni rag‘batlantirishga yordam beradi.

Davomi 3-beta

“PARIJ — 2024”: MAQSADLAR ULUG‘LIGI YORQIN G‘ALABALARGA POYDEVOR BO‘LADI

Poytaxtimizdagi Olimpiya va parolimpiya shon-shuhrati muzeyida Fransiyaning Parij shahrida iyul-avgust oylarida bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etadigan O‘zbekiston sport delegatsiyasini kuzatish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson manfaatlarini, xalqimizning egzu orzu-istaklari ro‘yobiga xizmat qilayotgani ta‘kidlandi. Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan yosh avlodni jismoniy va ma‘naviy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilayotgan doimiy e‘tibor o‘z samaralarini berayotgani alohida e‘tirof etildi.

Darhaqiqat, sportchilarimizning jahon arenalarida qo‘lga kiritayotgan g‘alabalari, davlatimiz madhiyasi yangrab, bayrog‘imiz baland ko‘tarilayotgani qalbimizga faxr-iftixor bag‘ishlaydi. Hech bir soha mamlakatni sportchilik dunyoga tez tanita olmaydi. Buni Olimpiya va Osiyo o‘yinlari, jahon va qit‘a chempionatlarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritayotgan matonatli sportchilarimiz faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi T.Norboeva, Osiyo Olimpiya kengashi vitse-prezidenti O.Umarov, Davlat xavfsizlik xizmati raisi, O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi raisi A.Azizov, O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri A.Ikromov, Milliy olimpiya qo‘mitasi bosh kotibi O.Qosimov va boshqa rasmiylar ishtirok etdi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonning yangi g‘alabalarini ta‘minlashda sportning o‘rni beqiyosligi, yurtimizda jismoniy tarbiya va sport yildan yilga rivojlanib yangi bosqichga ko‘tarilayotgani qayd etildi. Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 26-iyul — 11-avgust kunlari Parij shahrida bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII

Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarning har tomonlama tayyorligi va muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlash uchun barcha sharoit yaratib berilgan ta‘kidlandi. Davlatimiz rahbari yigit-qizlarimizni turir davomida ham qo‘llab-quvvatlab turishlari ma‘lum qilindi.

Sportchilar nomidan so‘zga chiqqan dzyudo bo‘yicha jahon chempioni Muzaffarbek To‘raboyev, boks bo‘yicha ayollar o‘rtasida O‘zbekistonning birinchi jahon chempioni Nigina O‘ktamova Olimpiya o‘yinlarida yuksak g‘alabalar bilan qaytishga va‘da berdi. Bu g‘alaba mustaqilligimizning 33 yilligiga munosib tuhfa bo‘lishini ta‘kidlashdi.

Tadbirda “Parij — 2024” Olimpiya o‘yinlari g‘olib va sovrindorlariga davlat tomonidan beriladigan mukofot pullari miqdori ma‘lum qilindi. Jumladan, Olimpiada chempionlari 200 ming, kumush medal sohiblari 100 ming, bronza medal sovrindorlari 50 ming AQSH dollari bilan taqdirlanadi.

Aytish lozimki, 2020-yilda o‘tkazilgan Tokio Olimpiadasida 67 nafar sportchimiz ishtirok etgan edi. Joriy yilgi “Parij — 2024” o‘yinlarida 70 nafardan ziyod sportchi qatnashadi. E‘tiborlisi, futbol bo‘yicha O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi birinchi marta ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, sportchilarimiz dzyudo, boks, akademik eshkak eshish, badiiy gimnastika, baydarka va kanoeda eshkak eshish, yengil atletika, og‘ir atletika, sport gimnastikasi, suzish, taekvondo (WTF), o‘q otish, erkin va yunon-rum kurashi kabi sport turlari bo‘yicha mamlakatimiz sharaflini himoya qiladi. Ular orasida nufuzli

musobaqalar, jahon chempionatlari g‘olib va sovrindorlari bo‘lgan tajribali sportchilar bilan bir qatorda ilk marotaba ishtirok etadigan yosh sportchilar ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

— Tokioda o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida bronza medalni qo‘lga kiritgan edim, — deydi dzyudo bo‘yicha Osiyo va jahon chempioni, Olimpiya o‘yinlari sovrindori Davlat Bobonov. — Prezidentimiz meni “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozini” faxriy unvoni bilan taqdirladi. Bu yilgi Olimpiyada, albatta, oltin medalni qo‘lga kiritaman. Xalqimizning ishonchini oqlash uchun bor kuch-g‘ayratimni sarflayman.

— Bu galgi Olimpiyada ikkinchi oltin medalimni qo‘lga kiritib, yorug‘ yuz bilan qaytishni maqsad qildim, — deydi boks bo‘yicha jahon va qit‘a chempioni, Osiyo va Olimpiya o‘yinlari g‘olibi Bahodir Jalolov. — Davlatimiz tomonidan bizga ko‘rsatilayotgan ulkan e‘tibor va g‘amxo‘rlikka javoban Olimpiya o‘yinlarida yuksak natijalarga erishish uchun bor salohiyatimizni ishga solamiz.

Tadbirda O‘zbekiston sport delegatsiyasining “Parij — 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlaridagi rasmiy va sport liboslari namoyish etildi.

O‘zbekiston sport faxriylari kengashi raisi Bahodir Maxsitov duoga qo‘l ochib, Parijga yo‘l olayotgan delegatsiyamiz vakillariga oq yo‘l va omad tiladi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov ishtirok etdi.

O‘ZA



O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, taniqli shoir Nodir Jonuzoq sportchilarimizga musobaqalarda omad yor bo‘lishini tilab, yangi she‘rini o‘qib berdi.

OQ YO‘L

Chaqmoq kabi chaqningiz, toshdingiz-ku misli sel,
Mardi maydon kurashdir bu — tushayapsiz bog‘lab bel,
Duo bilan kuzatmoqda sizni bugun katta el,
Zo‘rlar ichra eng zo‘r bo‘lib, masrur, g‘olib qaytingiz,
Shoda-shoda medallarni yurtga olib qaytingiz.
Chil bersam, der har elatning epchil-chaqqon, quvlari,
Quvvat bo‘lgay sizga Vatan tafti, havo, suvlari,
Ey elimning sherday yigiti, kiyikday suluvlari,
Shohsupaga sakrab chiqib, baxtdan yonib qaytingiz,
Shoda-shoda medallarni yurtga olib qaytingiz.
Boshingizda yalov bo‘lsin O‘zbekiston bayrog‘i,
Madhiyamiz mavjlariga to‘lsin Yerning har yog‘i,
Saodatdan mijjangizga tomchi yosh qalqan chog‘i —
Tole, iqbol shariatiga qonib-qonib qaytingiz,
Shoda-shoda medallarni yurtga olib qaytingiz.
Dilbandim, der sizni suyib olim, ishchi, cho‘pon ham,
Tikilgaydir sizga atab shoyi, zarhal chopon ham...
Qoyil, desin, olqishlasin farang, olmon, yapon ham,
Raqiblarning dillariga armon solib qaytingiz,
Shoda-shoda medallarni yurtga olib qaytingiz.
Ey Siz — Olim chog‘iqisiga chilvir otgan bahodir,
Suyanchiqdir ortingizda har qadrdon tog‘-adir,
Tanangizda mard bobolar toza qoni oqadir,
Neki g‘irrom, neki egri bo‘lsa — tonib qaytingiz,
Shoda-shoda medallarni yurtga olib qaytingiz.
Oltin, kumush harflar ila yozilgaydir bul sana —
Siz tufayli har bir uyda bo‘lsa to‘yu tantana.
Yurtboshining ishonchini, mehrini oqlab yana,
Quvontirib butun xalqni, ham quvonib qaytingiz,
Shoda-shoda medallarni yurtga olib qaytingiz!



Sayxunobod tajribasi

MAHALLAGA FAYZ, RO'ZG'ORGA BARAKA KIRITIB

bo'sh qo'ymasdan bodring ekdim. Bodring tez hosilga kiradi. Pomidor yetilguncha bodringni yig'ib olamiz, — deydi Ibrayim ota. — Mevali daraxtlar pomidorga soyabon vazifasini bajaradi.

Ibrayim Yerimbetov 76 yoshda bo'lishiga qaramay, hali tetik. Tomorqasidan chiqmaydi. Xo'jayli tumanidagi Tutzor mahallasida Ibrayim otani ko'pchilik yaxshi taniydi. Ota qirq yildan ortiq qishloq xo'jaligida faoliyat yuritgan.

— Hovlimiz bilan qo'shib hisoblaganda tomorqamiz 18 sotix. Yil-o'n ikki oy tomorqada mehnat qilamiz. Shunga yarasha daromadimiz ham chakki emas, — deydi Ibrayim ota. — Mana yangi kartoshkamiz hosil bermoqda. Bozordan kartoshka sotib olmaymiz. Yer tilini bilsangiz, bir sotixdan ham mo'l hosil olsa bo'ladi. Kartoshka yig'ib olingandan so'ng o'rniga bodring ekmoqchimiz. Yerni bo'sh qo'yamaymiz.

Shu payt Ibrayim ota so'zga aralashdi: — Aytgancha, bu nevaram menga yaqin ko'makdosh. Bolalarim bilan nevaralarimni mehnatga o'rgatib kelyapman. Mehnat qilib yegan noni barakali bo'ladi.



"Sayxunobod tajribasi" yerdan yanada samarali foydalanish, dehqonlar uchun bozor topishga, eksportga ko'maklashish, tadbirkorlarni sifatli urug' va dori bilan ta'minlash, yer munosabatlarni shakllantirish kabi muhim islohotlarni o'z ichiga olgan. Bu esa xonadon egalarni tomorqasidagi har bir qirich yerdan samarali foydalanishiga yordam beradi.

sababli baliq boqish bilan shug'ullanishni ham rejalashtiryapman.

"Xalqimiz o'z hayotida sezishi uchun hamma ishni mahallada tashkil qilyapmiz. Endi davlat idoralarning butun imkoniyatlarini har bir ko'chaga, xonadonga olib kiramiz. Mahallaga biriktirilgan bank mablag' berish bilan birga odamlarning dunyoqarashini ham o'zgartiradi. Maqsadimiz xalqning daromadini oshirish, boy qilish. Albatta, oson bo'lmaydi. Bu mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanish, yangi-yangi g'oyalardir. Lekin bajarsa bo'ladi", deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz.

Mahalladagi xonadonlarni aylanib yurganimizda ushbu hududga biriktirilgan bank xodimi Doniyor Yo'ldoshevi uchratdik. — Tijorat bankimiz tomonidan Xo'jayli tumanidagi "Samankul" ovul fuqarolar yig'indagi 21 ta xonadonga kredit ajratildi, — deydi u. — Biz har bir xonadon egasi bilan shubhatlashib, faoliyat turiga qarab kredit olishda ko'mak beryapmiz. Ushbu hududda, asosan, issiqxonalar qurish va chorvachilikka kredit ajratilmoqda.

Har bir mahallaga biriktirilgan banklar va hokim yordamchilari tomonidan Xo'jayli tumanidagi jami tanlab olingan 196 oilaning tomorqadan olinadigan daromadini 50-60 million so'mga chiqarish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda.

Xalqimizda "Yer xazina, tuproq oltin" degan dono gap bor. Unga bor mehningizni bersangiz, e'zozlasangiz, sizdan saxovatini ayamaydi, rizq-nasibangiz mo'l bo'ladi. Xo'jayli tumanida ham tomorqasini obod qilib, mahallasiga fayz, ro'zg'origa baraka kiritayotgan oilalar talaygina.

Joriy yil martida har bir mahalladan 7 tanad — jami 196 namunali oila tanlab olingan. Ularda 342 ishsiz fuqaro borligi aniqlangan. Shundan 216 nafariga kredit ajratish, 26 oilaga subsidiya berish orqali daromadini oshirish reja qilingan. 216 fuqaroga 3 milliard 20 million so'm imtiyozli kredit ajratilib, natijada 242 fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Bugun yurтимizning qay manzilida bo'lmang, ana shunday qiz'ing ish jarayoni ustidan chiqasiz. E'tiborli jihati, qilinayotgan ishlar orqali aholining tumshuq farovonligi, dasturxonining to'kin-sochiligi ta'minlanmoqda. Gapning sirasini aytganda, mehnatning rohatini ko'rib o'rganangani xo'jayliklarni har bir qirich yerdan unumli foydalanmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tomorqachilik

30 SOTIX YERDAN 500 MILLION SO'M DAROMAD

Yoz faslida poliz mahsulotlariga talab ortadi. Ayniqsa, qovun-tarvuzning bozori ham ancha chaqqon bo'ladi. Sarioshiy tumanining Gulobod mahallasida yashovchi Baxtovar Hidoyev bir gektar maydonda issiqxonada tashkil etib, 70 sotixida ertapishar tarvuz, qolgan 30 sotixida qulupnay yetishtirishni maqsad qilganda ko'pchilik ishonqiramad. Shuncha pulni boshqa ishga sarflasang, yaxshigina foyda olasan, deganlar ham bo'ldi. Dehqonchilikning hadisini olgan mirishkor ortiga qaytmadi. Mehnatdan qochmadi. Issiqxonadan beri kelmadi. Shu kunlarda odamlar orasida "Gulobodlik Baxtovar qulupnay ekilgan 30 sotix yerdan 500 million so'm daromad topibdi. Tarvuzining ham hosili va daromadi cho'g'i baland. 200 million so'mni chamalayapti" degan gap oraladi.

Dehqonning samarali mehnati natijasini ko'rish uchun mahalla-ko'y, mas'ullar, ommaviy axborot vositalari xodimlari mirishkorming xonadoniga serqatnov bo'lib qoldi. Asosiysi, uning tajribasini o'rganishga oshiqqanlar ham talaygina.



Hidoyev. — Qulupnayning bu turi yoz oylarida ham to'liq hosil beradi. Chunki yozda o'simlik harakatsiz jarayonga o'tadi. Bilasiz, qish oylarida bu mevani bozorlarimizda topish qiyin. Shu tufayli pishiqchilik mavsumiga nisbatan ancha yuqori narxda — 100-150 ming so'm atrofida sotiladi. Hozir ayni hosil yig'ish payti. Bundan tashqari, ko'chat yetishtirib sotishni ham yo'lga qo'ydik.



erishyapti, balki mahallasidagi ishsizlar bandligini ta'minlab, ro'zg'origa baraka kiritishiga hissa qo'shmoqda.

Parrandachilik daromadli, shu bilan birga, ancha nozik soha bo'lib, bugun yurtimiz agrar sektoridagi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurd. Oltinsoy tumani Navro'z mahallasida yashovchi Pardaxol To'raxonova qariyb 15 yildan beri jo'ja yetishtirib kelayotir. O'tgan yili u bankdan 100 million so'm kredit olib, faoliyatini kengaytirdi. Ayni paytda xonadonida 15 mingdan ortiq jo'ja va 4,5 mingdan ziyod bedana parvarishlab kelmoqda.

— Besh kelinim bor. Avvalgidek kelinlar kun bo'yi bola parvarishi bilan band emas. Shukrki, eng chekka joylarda ham bog'chalar ochilib, ishlab yotibdi. Kelinlarga ish topish biroz murakkab bo'ldi, — deydi Pardaxol To'raxonova. — Parrandachilikni yo'lga qo'yib, besh kelinga ishini taqsimlab berdim. Asosan, jo'ja boqish bilan shug'ullanamiz. Inkubator oldik. Hozir yelkaga to'r'vani osib, men chet elga ishga ketdim, deb mardikorlikka jo'nab yuboradigan zamon emas. U paytlar ortda qoldi. Endi ishlagan shu yerning o'zida ham farovon yashayapti, ishlamagan esa dunyoni kezib kelsa ham qorni och.

Oilaviy korxonaga 490 million so'm ajratilib, parrandalar uchun omixta yem ishlab chiqaruvchi tegirmon ham qurib berildi. Bu sohada tajribasi yetarli bo'lgan qahramonimiz inkubatorida ochirilgan jo'jalarning har birini 8-9 ming, bedanalarni esa 5 ming so'mdan yetkazib bermoqda.

— Bir mavsumimiz uch-to'rt oy davom etadi. Shu vaqtda kamida 60 million so'mdan ortiq daromad olamiz. Bedanachilikni o'tgan yildan boshladik. Avvaliga cho'chidik, ammo eplagan elakda suv keltirarkan. Buni ham uddaladik, — deydi onaxon.

Imkoniyat, harakat va natija birlashuvi tufayli bugun mahallalarda issiqxonachilik, parrandachilik yo'nalishida o'ziga xos tajriba maktabi yaratilmoqda. Bu esa aholining oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojini ta'minlab, bozordagi narx barqarorligiga xizmat qiladi. Peshona teri ortidan yaxshigina daromad olayotgan tomorqa egalari ham davlatimiz berayotgan imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalanaypti. Shuning saramasi tufayli bugun mamlakatimiz 80 dan ziyod davlatga 180 turdan ortiq meva-sabzavot eksport qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining joriy yil apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan o'tkazilgan muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ayni yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'layotir.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yangicha yondashuvlar



VAZIYATLAR MARKAZI muammoni aniqlaydi, tahlil qiladi va yechim topadi

Bugun qishloq xo'jaligi mutaxassisi biror ekin yoki dala haqida ma'lumot olish uchun o'sha joyga borishi shart emas. Yoki klaster vakili texnikasi qayerda ishlayotganini aniqlash uchun ortiqcha vaqt va mablag' sarflab o'tirmaydi. Ish stolidagi kompyuteridan barcha zarur ma'lumotlarni olaveradi. "Agrosubsidiya", "Agroplatforma", Geoaxborot tizimi, "E-ijara", "CropAgro", "AGROBI" kabi o'ndan ortiq axborot tizimi shunday qulayliklarni yaratib beradi.

Qishloq xo'jaligi vazirligining Vaziyatlar markazi esa ana shu tizimlarni birlashtirgan holda sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish hamda samarali yechimlar topish uchun tashkil etilgan muhim tuzilma bo'ldi. Chunki qishloq xo'jaligi sohasidagi barcha ma'lumotlar aynan shu yerda jamlanadi. Tahlil qilinib, turli vaziyatlar bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Bular, o'z navbatida, kelgusida sohani rivojlantirishda rejalar ishlab chiqish hamda aniq qarorlar qabul qilishda qo'l keladi. Masalan, respublikamizda qaysi tur ekinlar ko'p ekilmoqda yoki qaysi mahsulot turlari yetishmaydi? Oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan aholiga yetarli bo'lishi uchun qanday mahsulotlarni xorijdan import qilish zarurati yuzaga kelishi mumkin, degan savollarga javob olindi. Ehtimoliy muammolar barvaqt aniqlanib, ularga o'z vaqtda chora ko'rish imkoniyati yaratiladi.

Birgina "Agrosubsidiya" axborot tizimi orqali mahsulot yetishtiruvchilar 45 turdagi subsidiya olish uchun ariza bershini va uning holatini shaffof kuzatib borishi mumkin. Shuningdek, "temir daftar" bo'yicha ajratilgan yerlar to'g'risida ma'lumotlarni respublika kesimida geografik kartada aks ettirilgan shaklda ko'rish imkoniyati ham mavjud.

Umuman olganda, Vaziyatlar markazida 20 yo'nalishdagi elektron bazalar integratsiya qilinib, yagona ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Ayni paytda bu bo'yicha Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan integratsiya ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi kunda dunyo yalpi ichki mahsulotining 10 foizga yaqini raqamli aktivlarga to'g'ri keladi. Jahon iqtisodiy ishlab chiqarishida esa 30 foizlik ulushga ega. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish zarur infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etsa-da, aksar davlatlar uning eng zamonaviy jihatlarni qo'llashga, shu orqali rivojlanishga intilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni faol tatbiq etish mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. U qishloq xo'jaligi sohasi uchun ham juda muhim. Ya'ni "aqlli" texnologiyalar ekin ekish, hosil yetishtirish, saqlash va tashishda samardorlikni ta'minlashda, yer, suv, moddiy-texnik va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishda qo'l keladi.

Fozil TESHAYEV, Qishloq xo'jaligi vazirligi bo'lim boshlig'i

Sharh

RAQAMLI KRIMINALISTIKA

shaxsiy ma'lumotlarni kiberjinoyatchilik tahdidlaridan samarali himoya qiladi



Qo'limizdagi aqlli smartfonlar bizni soniyalar ichida jahon axborot olami ishtirokchisiga aylantirmoqda.

Bugun internetdagi jinoyatlar turi va ko'lami kengayib, kiberjinoyatlar, firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash orqali pul mablag'lari talon-taroj qilinmoqda.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda ham kiberjinoyatchilikning turli ko'rinishlari, xususan, fuqarolarning plastik kartalaridan mablag'yechib olish holatlari kuzatilmoqda.

Qayd etilishicha, birgina 2022-yilda ma'lumotlar o'g'irlanishi korxonada va tashkilotlarda o'rta 4,35 million dollar zarar keltirgan.

bu borada O'zbekistondagi vaziyat qanday?

Bu turdagi jinoyatlar 2021-yili 3885 tani tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yilda 6455 taga yetgan.

Mana shuning o'ziyiq kiberjinoyatlarga qarshi kompleks choralar ko'rish, xufiyona iqtisodiyot, korrupsiyaga oid va boshqa jinoyatlarini fosh etishda raqamli ekspertlar o'tkazishni taqozo qilmoqda.

jihatdan asoslangan ishonchli dalillar bilan isbotlash jarayonlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlarini o'z vaqtida aniqlash va samarali tergov qilishda maxsus raqamli usul va vositalardan foydalanish, raqamli dalillar bilan ishlash texnikasini ishlab chiqish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda bu borada tizimli ilmiy tadqiqot bazasini yaratish ham ayni zamon taqozosi hisoblanadi.

Ana shu maqsadda davlatimiz rahbarining joriy yil 21-iyunda qabul qilingan "Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, shuningdek, ularni aniqlash va tergov qilish usulbarini takomillashtirishga qaratilgan raqamli kriminalistika sohasida ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish borasida qator vazifalar belgilandi.

Ivan STRELSOV, Rossiya Tergov qo'mitasi Kriminalistika bosh boshqarmasi rahbari o'rinbosari:



Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida muhim qadam bo'ldi.

Muhiddin O'ZDEMIR, Turkiya Adliya akademiyasi prezidenti:



Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilishi zamonaviy davr talablariga o'z vaqtida berilgan javobdir.

Yuriy KAMENESKIY, Belarus Respublikasi Tergov qo'mitasi malaka oshirish instituti direktori:



O'zbekistonning raqamli kriminalistika rivojiga qaratilgan strategik e'tibori yuqori bahoga loyiq.



Sami RYUXANEN, YXHT politsiya faoliyati strategik masalalari bo'limi boshlig'i:



Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti O'zbekistonda Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilishini qutlaydi.

Raqamli kriminalistika sohasida innovatsion tadqiqotlar olib borish, jinoyatlar raqamli izlarini qidirish, raqamli ekspertiza o'tkazish, raqamli kriminalistika texnik vositalari va dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqish, masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun potensial platforma sifatida ko'rib chiqilgan va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shma dasturlar orqali har tomonlama yordam ko'rsatishga tayyormiz.

qurishga sodiqdoling namoyish etdi. Bu yerda innovatsion texnologiyalar, shaffoflik va samaradorlik huquqni muhofaza qilish faoliyatining tamol toshi hisoblanadi.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tadorik

PROFESSIONAL BOSHQARUV SERVIS KOMPANIYALARI

Aholi uylarni boshqarish sifatidan qoniqyaptimi?

Bugun yurtimizning barcha hududlarida ko'plab zamonaviy uy-joylar, Yangi O'zbekiston massivlari barpo etilyapti.

Biroq bu borada qator kamchiliklar ham yo'q emas. Bu holat, ayniqsa, qish mavsumida yaqqol ko'rinadi.

Bunday muammolarni hal etish uchun qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini ayni yozning issiq kunlaridan boshlagan ma'qul.

qozonxonada, qozon va issiqlik tarmoqlarini yaxshilash, suv tarmoqlari va nasoslarni ta'mirlashga doir vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 19-iyundagi "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ko'p kvartirali uy-joylarning umumiy mul-mulkini saqlash, undan samarali foydalanish va ta'mirlash, ularga tutash yerlarni o'zlashtirishning izchil amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida boshqaruv servis kompaniyalari tashkil etilib, aholiga xizmat ko'rsatyapti.

Ayni paytda respublikamizdagi 39 mingga yaqin ko'p qavatli uyga 800 dan ortiq shunday kompaniya xizmat ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 10-iyun kuni energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda energetika sohasi obyektlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida ilgari surilgan dolzarb masalalar bu borada joylarda qilinayotgan ishlarini yanada jonlantirishga turtki bo'ldi.

ta'mirlash bilan cheklanganyapti. Lekin uylar atrofini obodonlashtirish, tom, ichki va sug'orish tarmoqlarini soz holda saqlab turish kabi asosiy vazifalar e'tibordan chetda qolib ketmoqda.

"Azamat" mahalla fuqarolar yig'inidagi ko'p qavatli uylarga mazkur boshqaruv servis kompaniyasi xizmat ko'rsatyapti. Shu kunlarda ko'p qavatli uylarni qishga tayyorlash bo'yicha ishlar qizg'in davom etyapti.

Mahalla raisi Izzat Yamanovning aytishicha, 52 ta ko'p qavatli uyda va 12 ta hovliqda jami yetti mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi.

isitiladi. Qozonxonalar qishda uzluksiz ishlashi uchun tegishli kompaniya mutaxassislari doimiy monitoring yuritmoqda.



sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarga oqilona yechim topishda davlatimiz rahbarining 2023-yil 15-avgustdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishini yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yana bir muhim qadam bo'ldi.

Majburiy badallarning eng kam miqdori belgilanib, chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari tizimlashtirildi.



matbuot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, 2023-yilda mamlakatimiz bo'yicha 3 mingga yaqin uyning tom va yerto'lasini ta'mirlandi.

ekiladi. Shuningdek, joriy yilda uylarning kirish yo'laklariga kamida 50 mingta energiya tejovchi chiroq o'rnatish orqali iste'mol hajmini 30 foizgacha qisqartirish rejalashtirilgan.

Boshqaruv servis kompaniyalarining moliyaviy ahvoli yaxshilanishi va qo'shimcha ish hajmi ortishi natijasida o'tgan 5 oyda 701 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Bularning barchasi ko'p qavatli uylarda yashovchi aholining turmush sifatini yaxshilash, hududlarning ekologik muhiti musaffoligi, xonadonlarda doimiy ravishda suv, elektr energiyasi, gaz va kundalik ehtiyojimiz uchun zarur boshqa imkoniyatlar bo'lishini ta'minlash yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlarning o'ziga xos natijasi.

Masalan, hamma boshqaruv servis kompaniyalari ham professional faoliyat yuritmaydi, deb bo'lmaydi. O'zimizga bog'liqlik tomoniga keladigan bo'lsak, tong sahara obodonlashtirish va kommunal tizimlar ishchilari obod qilib ketgan ichki ko'chalarda zum o'tmay chiqindi solingan paketchalar paydo bo'ladi.

Ayni paytda joylarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik qizg'in davom etyapti. Bu borada har bir mahalladagi haqiqiy ahvol o'rganilib, tumanlar kesimida dastur ishlab chiqildi.

Bahor XIDIROVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugunning gapi

ADOLAT VA RAQOBAT ta'lim rivojining kafolati

Shuhrat SIROJIDDINOV, akademik

Yoshlikda olingan ilm umr bo'yi insonga do'st, hamroh bo'ladi. Kelajak avlod bilimlil bo'lsa, mamlakatimiz va jahonda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga xolis baho bera oladi. To'g'ri xulosa chiqaradi hamda hayotini o'zgartirishga qodir bo'ladi, jamiyat ravnagiga hissa qo'shadi.



Jamiyatda ilmga, ilmlilarga rag'bat tizimi yaratilayotgan. Nega? Chunki taraqqiyotga faqat ta'lim orqali erishiladi. Boz ustiga O'zbekiston Uchinchi Rennanss sari dadil odimlamog'ga. Zero, jahon taraqqiyotining harakatlaniruvchi kuchi va tezlashtiradigan omili malakali, zamon talablariga javob bera oladigan, professional mutaxassislardir. Bunday kadrlarni, shubhasiz, oliy ta'lim tizimini tayyorlab beradi. Shu sababli mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan ilm-fan, ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, iqtisodiyotning yangi yo'nalishlari uchun kuchli mutaxassislar tayyorlash davlatimizning doimiy e'tiborida. Buning isboti o'laroq, birinchi navbatda, yosh avlodga ta'lim beradigan o'qituvchi va pedagoglar maoshi oshirildi, ularni majburiy mehnatga jalb etishga batamom chek qo'yildi. OTMlar soni bilan birga, qabul ko'rsatkichi ham sezilarli darajada ortdi. Bunday ijobiy natijalar ko'p. Biroq jamiyatimiz uchun ustuvor bo'lgan vazifa o'tgan vaqtda ortirilgan tajribadan to'g'ri xulosa chiqargan holda sohani yanada taraqqiy ettirish, oliy ta'lim olish istagidagi yoshlar uchun keng imkoniyat yaratib berishdir.

Davlatimiz rahbarining shu yil 24-maydagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul

qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni hamda unda belgilab berilgan vazifalar ana shu maqsadlarni amalga oshirishda muhim dasturlamal bo'lib xizmat qiladi. Farmonga ko'ra, 2024/2025-o'quv yili qabulidan boshlab davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta'lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etiladi. Albatta, bundan oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari mustasno.

Ta'lim granti davlat buyurtmasi parametrlari doirasida oliy ta'lim tashkilotiga qabul qilingan talabalarga beriladi. Joriy yildan boshlab bakalavriat va magistratura qabul qilingan talabalarga ta'lim granti bir o'quv yili uchun ajratiladi. Grantni oliy o'quv yurtlariga ajratilgan davlat buyurtmasi kvotasiga muvofiq kirish imtihonlarida yuqori ball to'plagan birinchi kurs talabalar oladi. Ta'lim granti tabaqalashtirilgan tartibda moliyalashtiriladi va stipendiya faqat to'liq ta'lim grantini yutgan talabalarga to'lanadi. Ya'ni birinchi yili grantga kirgan talaba OTMda bepul o'qiydi va stipendiya oladi. Keyingi o'quv yilida kontraktga tushib ketsa, davlatdan stipendiya olmaydi.

Ikkinchi va undan yuqori kurslarda bir yillik grant yutgan talabalar ham shunday imtiyozga ega bo'ladi. Boz ustiga ikkinchi va keyingi yillarda grantlar universitet tomonidan yuqori akademik reytingga erishgan va ijtimoiy faollik ko'rsatgan talabalar o'rtasida tabaqalashtirilgan tartibda qayta taqsimlanadi. Qolaversa, ta'lim granti asosida o'qigan talabalar uchun o'qishni tugatgandan keyin kamida uch yil ishlab majburiyat bekor qilinadi.

Aniqroq aytganda, joriy qilinayotgan yangi tizimda grantlar oliy ta'lim muassasalari kesimida emas, bo'lajak talaba, yo'nalish kesimida berilib, iqtidorga yo'naltiriladi. Talabaga grant iqtidori uchun ajratiladi, u keyingi o'quv yilida ham grant uchun kurashishi kerak.

Bundan tashqari, farmonga muvofiq, 2024/2025-o'quv yilidan davlat oliy va professional ta'lim muassasalariga (kasb-hunar



maktabi bundan mustasno) qabul qilish bo'yicha imtihonlar avval test, so'ng tanlov asosida bir vaqtda o'tkaziladi. Bunda abituriyentlar o'z tanloviga ko'ra test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, dastlab oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishiga, so'ng professional ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tanlovda ishtirok etadi.

Bunda qabul jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar har yili 5-iyundan 25-iyungacha test sinovi topshirish uchun ro'yxatdan o'tadi hamda test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta'lim tili va test topshirish hududini hamda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lsa, ushbu imtihonni topshiradigan davlat oliy ta'lim muassasasini tanlaydi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yagona kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturlari va baholash mezonlari tegishli vazirliklar (idoralar) tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

O'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari iyul-avgust oylarida o'tkaziladi. Ikkinchi bosqichda abituriyentlar test sinovlari to'liq yakunlanganidan so'ng 15 kun davomida oliy ta'lim muassasasi, bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ta'lim shaklini tanlaydi.

Ushbu adolati ta'lim tizimining joriy etilishi yoshlarimizga rag'bat beradi. Ularni o'qishga kirgandan keyin ham sog'lom raqobat ruhida yanada ko'proq izlanishga undaydi. Chunki amaldagi tizimda arizmas xatolikni deb kontraktga tushib qolgan abituriyentlar oilaviy va iqtisodiy muammolari sabab bir yil vaqtini yo'qotishga yoki bo'lmasa, to'rt yil qiyinatilgan kontrakt to'lab ta'lim olishga majbur edi. Yana bir muhim o'zgarish 2025-yildan boshlab davlat buyurtmasi parametrlari iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan shakllantiriladigan oliy ma'lumotli kadrlarga talab prognoziga muvofiq to'rt yillik davr uchun tasdiqlanishi bilan bog'liq.

Bu tizim ham kelajakda zamon talablari asosida kadrlar tayyorlash hamda bitiruvchilar uchun munosib ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman, farmonda davlat granti va to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishning minimal o'tish bali tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishining oldingi o'quv yilidagi o'rtacha o'tish ballarini hisobga olgan holda Davlat komissiyasi tomonidan belgilanishi, magistratura mutaxassisliklari va oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga qabul qilishda xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat talablarining yangilashirilishi hamda imtiyoz bilan davlat granti asosida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentga ushbu imtiyozdan takroran foydalanishga ruxsat etilmasligi kabi ko'plab ijobiy o'zgarishlar ko'zda tutilgan.

Farmon oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish va davlat granti ajratish mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlarning sifati ta'lim olishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, kadrlar tayyorlashni iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoq va sohalarga manzilli yo'naltirishni maqsad qilgan. Chunki hayot jadal o'zgarayotgan, iqtisodiyotda innovatsion va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi yo'nalishlar paydo bo'lyapti.

Shundan kelib chiqib, bu yo'nalishda ta'lim sifati oshirish, 2024-2025-o'quv yilida muhandislik, tibbiyot va aniq fanlar sohalarda grant o'rinlari 50 foizgacha oshirilayapti. Bu kelajakda mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish, professional va yetuk muhandis kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim tizimida adolati mustahkamlashga xizmat qiladi.

Munosabat

Sadoqat SIDDIQOVA, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori



Yaqinda davlatimiz rahbari rektorlar va professor-o'qituvchilar bilan muloqot qilib, muhandis kadrlar tayyorlash borasidagi asosiy vazifalarni belgilab berdi. Chunki muhandislik sohasi hayotimizning barcha jabhasiga chuqur kirib, amaliy sa'y-harakatlarimiz mezoniga aylanib bormoqda. Muhandis kadrlarni salohiyatli va vatanparvar etib tarbiyalash xalqimiz og'irini engil qilish, ishlab chiqarishga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, dunyo tamaddunidagi o'rnimizni yanada yuksaltirishda muhim.

Yig'ilishda sohadagi sharoit avvalgidan o'zgargan bo'lsa ham shiddatli zamon uchun yetarli bo'lmayotgani ta'kidlandi. Dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy mavqemiz o'zgarishi muhandislik va yaratuvchilik salohiyatimizga bog'liq. Iqtisodiyotimizning jadal o'rishini ta'minlashda yuqori malakali muhandis-texnologiyaga ehtiyoj yuqorilgicha ham urg'u berildi.

Shu bilan birga, muhandislar har bir sohaga cheksiz mehnati singgani ham ochiq-oydin haqiqat. Hamisha insoniyatni taraqqiyotga olg'a boshlaydigan, noyob loyihalarga ilhomlantiradigan muhandislar davrning ildam yetakchiligidir. Xususan, milliy muhandislik tizimimiz va o'ziga xos maktab shakllantirish vazifasi oldimizda turgan eng muhim maqsadimizga aylanishi kerak. Jahon bozorida innovatsion, tejankor, yangi loyihalarga talab yuqori bo'layotgani, iqtisodiy tovar aylanmasida ham muhandislik mahsulotlari salmog'i asosiy o'rin egallamoqda. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlikka iqtidorli muhandislar tarbiyalash orqali erishish imkonligini anglatadi. Sababi

eng murakkab turdagi operatsiyalarni amalga oshiradigan apparatlardan tortib, minib yurgan mashinamiz, yashayotgan binolarimiz, yurayotgan yo'llarimizgacha, eng murakkabdan sodda instrumentlarga muhandislar mehnati mahsuli sanaladi. Bugun dunyoning eng boy odami ham, insoniyat tafakkuridan ancha ildamlab ketayotganlar ham muhandislardir.

Yig'ilishda texnika oliyog'haridagi yo'nalish va mutaxassisliklar ishlab chiqaruvchilar talabiga mos emasligi tanqid qilindi. Bu o'rinda kadrlar tayyorlashda mehnat bozori talab va takliflarini hisobga olish, puxta o'zlashtirish zarurligini qayd etmoqchimiz. Yaqin va uzoq istiqboldagi rivojlanish nuqtayi nazaridan bizga zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar kerak. Ushbu maqsadni ro'yog'ba chiqarish uchun OTMlarda dolzarb va ilg'or yo'nalishlarni joriy etishimiz zarurdir. Sohani nafaqat jonlantirish, davlatimiz tayanchiga aylantirishdek vazifani zimnamizga olgan ekanmiz, OTM rahbarlari va mutasaddilar tinimsiz izlanishda bo'lishi, yangiliklardan uzilib qolmasligi, jahon tajribasi

bilan bog'liqlik hosil qila olishi lozim. Bu vatanga va xalq taraqqiyotiga xizmat qilishning go'zal ko'rinishidir.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida hozir robototexnika va mexatronika yo'nalishida kadrlar tayyorlashga alohida urg'u berilmoqda. Chunki robototexnika asta-sekin odamlar professional va shaxsiy hayotining bir qismiga aylanib ulgurgan davrda yashayapmiz. Ushbu pallada nafaqat yuqori texnologiyalarni ishlatiladigan kadrlarga ehtiyoj sezamiz, balki ushbu texnologiyalarni yaratadigan yoshlarni ham tayyorlashimiz muhim. Albatta, bunga bir

MUHANDISLAR — davrning ildam yetakchilari

xalqaro standartlarni joriy etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'qilish, yuqori texnologiyalar yordamida ishlaydigan kadrlar tayyorlash maqsadida ilmiy laboratoriyalar moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Jumladan, joriy yilda "Mashinosoz" texnopark tashkil etildi. Unda 12 ta zamonaviy o'quv laboratoriyasi jihozi bo'lib, ular ko'magida 88 ta laboratoriya ishi bajariladi. Islom taraqqiyot banki hisobidan 445 ming dollar ajratilgan. Shuningdek, 80 ming dollarlik "Metrologiya" ilmiy-innovatsion laboratoriyasi tashkil etilib, 25 ta zamonaviy laboratoriya qurilmalari bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, 171 ming dollarlik 17 ta zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozidan iborat "Issiqlik texnikasi. Termodynamika" o'quv va ilmiy laboratoriyasi tashkil etildi. Ushbu laboratoriya xonasidagi 17 ta zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozida 138 ta laboratoriya ishi bajarish imkonini mavjud. Joriy yilda ishlab chiqarishda 9,75 milliard so'mlik xo'jalik shartnomasi bajarildi. Shuningdek, ilmiy innovatsiyalarni ishlab chiqarishni joriy etish, bu borada

ilmiy loyihalarni buyurtma bilan ta'minlash bo'yicha mahalliy hokimlik tomonidan yordam ko'rsatilishi belgilab berildi. Bu, o'z navbatida, oilamizning yangi hamkorlik loyihalarini yaratish va sanoatning barcha sohasiga joriy etishni ta'minlaydi. Institut olimlari ilmiy ishlanma va yangi mahsulotlar yaratishda iqlimga xos va tuprog'imizga chidamli texnologiyalar yaratilayotganiga urg'u berayotir. Xususan, 2023-2024-o'quv yilida professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlar tomonidan sug'orish, Buxoro viloyatida geotermal energiyadan foydalanishni yo'lga qo'yish, zoiq-ovqat xavfsizligini ta'minlash texnologiyalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, detallar tarkibini aniqlash, ipak chiqindilaridan kosmetik va antibakterial mahsulotlar olish, Felting texnikasi yordamida barqaror shakldagi kiyimlar tayyorlash, mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilari asosida maxsus poyabzal polimer tagliklari yaratish va birlashtirish, elektr tarmog'ida noqonuniy ulanishni aniqlash texnologiyasi yaratildi. Ushbu texnologiyalar qishloq xo'jaligi va sanoatda dolzarbli jihatidan katta ahamiyatga ega yangi loyihalardir.

Yig'ilishda berilgan topshiriqlarga binoan oliy muhandislik maktabi tashkil etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari bajarilmoqda. Bundan tashqari, tanqidiy-tahliliy ruhda o'tkazilgan yig'ilishda Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Cooperation.us maxsus savdo platformasida xizmat ko'rsatgani ta'kidlandi. Joriy yilda institutning 2 ta kafedrasini 28 ta xizmat ko'rsatish bo'yicha 4,5 milliard so'm daromad olgan. Yil oxirigacha barcha kafedrada elektron kooperatsiya portalida 10 milliard so'mlikdan ziyod shartnomalar tuzilishi reja qilingan.

Ta'lim tizimidagi islohot va tashabbuslar, ayniqsa, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan keng foydalanilgan holda, ushbu yig'ilishdan so'ng oldimizga katta marralar belgilab oldik. Yangi O'zbekistonni barpo etishda vatanparvarligi, ilmi, iqtidor, salohiyat hamda tashabbuskorligi bilan tengdoshlari orasida shaxsiy namuna ko'rsatadigan yetakchi yoshlarni tarbiyalashga bor kuch-g'ayratimizni safarbar qilamiz, albatta. Ulug'lar ayrganidek, asl kuch so'zdan keyingi amaliy ishlarda bo'y ko'rsatadi.

